


ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA





INNOVATIVE WORLD

«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



DRJI Directory of Research Journals Indexing

innoworld.net

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING PIRLS TOPSHIRIQLARINI
BAJARISHDAGI YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLARI VA UNI
BARTARAF ETISH YO'LLARI.**

Choriyeva Validə Abdug'ani qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,

Ta'lim va tarbiya nazariyasи va metodikasi (boshlang'ich ta'lism) mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) texnologiyasidan foydalanishidagi ahamiyat va ularga duch keladigan qiyinchiliklarga bag'ishlangan. Maqolada, PIRLS texnologiyasining o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashdagi roli, uning ta'lim tizimidagi o'rni va metodologik afzallikkлari tahlil qilinadi. Shuningdek ayrim qiyinchiliklarga yechimlar taklif etiladi

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, o'qish savodxonligi, zamonaviy yondoshuvlar,o'qituvchi,xorijiy tajribalar,ta'lim sifatini baholash.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan mustaqil diyorimizda har sohada ulkan o'zgarishlar qilinib,O'zbekiston yangicha qiyofa kasb etmoqda.Buning yaqqol misoli sifatida ta'lim tizimiga Xalqaro baholash tizimining kirib kelishini muhim o'zgarishlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.Shunga ko'ra bugungi rivojlanayotgan jamiyatimizning har bir fan o'qituvchisi Xalqaro baholash tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi va o'quvchilarni PIRLS imtihonlariga samarali tayyorlashi muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Baholash jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lganligi uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiyo'rta ta'lim maktabi o'quvchilar bilimlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yi 5-sentabrdagi "Xalq ta'limiini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538 sonli Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limiini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5712 sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. [1].

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study- xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) - bu turli mamalakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matinni o'qish va tushinish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan.

PIRLS dasturi tadqiqotlarini muvofaqiyatli bajarishi uchun o'quvchi, mustaqil ijodiy fikrlagan holda, topshiriqlarga javob berishi talab etiladi.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta'lif institutlari assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar orasida yetakchi hisoblanib kelinmoqda.

PIRLS da ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli - bu badiiy to'qimaga assoslangan hikoyalardir. Tadqiqotning xalqaro lug'atiga ko'ra, "o'quvchi savodxonligi" - bu insonning hayotda o'zini to'liq namoyon qilishi va o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan turli yozma tillarni tushunishi va mantiqiy ravishda anglash qobiliyatidir.

Tadqiqotning har bir ishtirokchisiga matnlar va ularga topshiriqlar berilgan daftар beriladi. Birinchi matn - bu fantastika yoki kulgili hikoyalar, tasvir yoki ertak, ikkinchisi - ma'lumotli (ko'pincha hayvonlar haqidagi hikoya). Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi. Ishtorokchilarga barcha ishlarni bajarish uchun 80 daqiqa vaqt beriladi (har biri tanaffus bilan 40 daqiqadan iborat).

PIRLS tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi: 1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish. 2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish. O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi: 1. Adabiy o'qish tajribasini o'rganish; 2. Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash. PIRLS o'rganish monitoringi bo'lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o'qish sifati dinamikasini o'rganish bo'lganligi sababli, o'qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir. PIRLS topshiriqlarining asosini o'qishni tushunish, uning tabiatini va rivojlanishi tashkil qiladi.

O'qishni tushunish - bu biz o'qigan matnlarni tushunish jarayonidir. Bu o'qishdan maqsad, biz uni nima uchun o'rganamiz va nima uchun uni tushinishga xarakat qilamiz. Shuningdek, u matndan mazmunli o'rganish uchun zarur shart. O'qishni tushunish murakkab va biz uni to'liq tushunishdan hali ham uzoqmiz. Lekin biz juda ko'p narsani o'rgandik. Ushbu maqoladagi maqsadim so'nggi tadqiqotlarni ko'rib chiqish va uchta asosiy savol atrofida mulohaza yuritishdir: 1. O'qishni tushunish nima?, 2.Qanday omillar o'qishni tushunish rivojlanishiga yordam beradi?, va 3.Kimlar "Sayoz tushunuvchilar"?



O'qishni tushunish - bu shakllangan ko'nikmaning boshqa maqsadlarda qo'llanilishi o'quvchilar matnni tushunish va undan o'rganish uchun oldingi bilimlardan qanday foydalanishini tushuntirishdir. O'qishni tushunish bolaning rivojlanishidagi muhim kognitiv qobiliyatdir. Ushbu nazariyaga muvofiq, matnni tushunish ikki yo'nalishda ishlaydi: pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga ierarxiya. Pastdan yuqoriga ishlov berish matndagi ma'lum ma'lumotlar bilan faollashtiriladi, yuqoridan pastga ishlov berish esa bu ma'noni tasdiqlash uchun umumiylilik bilan boshlanadi. Ushbu ikki turdag'i qayta ishlash bir vaqtning o'zida va interaktiv tarzda sodir bo'ladi, bu esa pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga jarayonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir yoki tushunish kontseptsiyasiga qo'shimcha qiladi [2].

Tushunish qobiliyatları - hikoyaning boshi, o'rtasi va oxiri kabi tarkibiy qismlarini aniqlash, shuningdek, berilgan matn ichidagi voqealarni sodir bo'lgan tartibda qayta hikoya qilish qobiliyatini bildiradi. Matndagi voqealarni ketma-ketlashtirish qobiliyatı, ayniqsa, hikoya matnlari uchun asosiy tushunish strategiyasidir.

Boshlang'ich ta'lif tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lif jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo'limgan, murakkab (ko'plik), turli xil matnlarni o'qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o'qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog'oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo'yilgan.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari matnlar bilan ishslash jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Buning oldini olishning yechimi sifatida jamiyatda, o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar orasida o'qish savodxonligi bilan shug'ullanishning qadr-qimmatini tan olinishi, maktabda va oilalarda o'qishga bo'lgan yuqori motivatsiya, mактабгача таъяоргарликнинг яхши даражаси, ота-оналарнинг о'qishni o'rganishga таъяоргарлик ко'rishdagi ishtiろki, umumi y boshlang'ich ta'lifning Federal davlat asosiy standartlarida (ФГОС HOO) belgilab qo'yilgan ta'lif jarayonidagi prinsipial o'zgarishlar: "badiiy o'qish" va metapredmet natijalari bo'yicha umumi y ta'lifni tashkil etish va natijalarga erishish, boshlang'ich ta'lifning sifatlari, dasturlari, darsliklar, o'qishni o'rgatishning chuqur o'ylangan metodikasi, o'qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli ishslash kabi omillar PIRLSda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak yutuqlarga erishishlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida o'rganilgan.

Har bir sinfda ta'lifni differensiyalashga kuchli e'tibor berilishi zarur, bu borada aksariyat birinchi sinf o'quvchilarining muvafaqqiyatli boshlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'limgan maktablarga alohida e'tibor berilishi lozim. Yana ikkita muammolarni yodda tutish kerak: 1) Eng kuchli o'quvchilarga kelgusidagi rivojlanishiga ko'maklashish. 2) O'g'il bolalarga yordam berish, chunki ularning natijalari qizlarning natijalaridan ko'ra

yomonroq degan fikrlarni ko'rib chiqib aynan mana shu vazifalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining PIRLSda yuksak yutuqlarga erishishdagi o'sish nuqtalari deb belgilangan [3].

Boshlang'ich ta'lismi tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lismi jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo'limgan, murakkab (ko'plik), turli xil matnlarni o'qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o'qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog'oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo'yilgan.

O'quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o'qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo'yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o'zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o'quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to'g'ri yoki noto'g'ri fikrini tinglab, to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o'rganib boradi.

REFERENCES

1. Abdug'aniyeva Z. 2016-yilgi PIRLS ning natijalariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini ta'minlaydigan omillar. Maqola.
2. Reading Comprehension: Its Nature and Development. 2007. Yanvar
3. "Xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish – inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar. Sidorova Galina Aleksandrovna, Rossiya ta'lismi akademiyasining ta'lismi rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lismi sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi. e-mail: centeroko@mail.ru Veb-sayt www.centeroko.ru
4. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
5. PIRLS - Vikipediya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/PIRLS>.
6. Xalq ta'lumi tizimida ta'lum sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish va tashkil etish mavzusida qo'llanma: Namangan viloyati Xalq ta'lumi boshqarmasi , Ta'lum sifati monitoringi bo'limi, 2019, B.30.
7. N.G.Dilova. Uzlusiz ta'lum jarayoni subektlarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: Muommolar va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi."Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilmini baholashda PIRLS tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari" nomli tezisi 26.1.0.2020 y.